

CHET TILLARINI O'QITISH METODIKASI

Andijon davlat chet tillari instituti

Ingliz filologiyasi, o'qitish metodikasi va tarjimashunoslik fakulteti

Ingliz tili integrallashgan kursi kafedrasi

Ingliz tili yo'nalishi

1-bosqich 103-guruh talabasi

O'rinboyeva Surayyo

Ilmiy rahbar: f. f. d. (phd) N. M. Qodirova

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kun ta'limining asosiy qismi bo'lgan chet tillarini o'qitishda samarali va zamonaviy metodikalardan foydalanish, yangi turdag'i metodlarni o'rganish, o'rgatish va ularni amaliyotga tatbiq etish haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: metod, zamonaviy metodika, chet tili, o'qitish, texnologiya, o'yinlar, muloqot.

Abstract: This article talks about the use of effective and modern methods in teaching foreign languages, which is the main part of today's education, learning and teaching new methods and their implementation.

Key words: method, modern methodology, foreign language, teaching, technology, games, communication.

Аннотация: В данной статье говорится об использовании эффективных и современных методов обучения иностранным языкам, что является основной частью современного образования, изучении и преподавании новых методов и их внедрении.

Ключевые слова: метод, современная методика, иностранный язык, обучение, технология, игры, общение.

Hozirgi global mashhuv va xalqaro munosabatlар avj olgan zamonamizda chet tilini o'rganish muhim ahamiyatga ega va bugungi kunda maktabgacha ta'lif, o'rta maxsus va oliy ta'lif muassasasida ta'lif olayotgan barcha talabalar va o'quvchilarga o'z ona tillaridan tashqari boshqa bir xorijiy til ham o'rgatilmoqda. Chet tili bu - insonning ona tili bo'limgan boshqa til. Mamlakatimizda ingliz, ispan, nemis, fransuz, arab turk, xitoy, hind va rus tillari o'qilib kelinmoqda. Biz ona tilimizni tabiiy holatda o'rganamiz, chet tilini esa sun'iy ravishda bilib olamiz.

Yurtimizda bu sohaga katta e'tibor qaratilgan. "Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan, o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish

hamda buning negizida, ularning jahon svilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko‘lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish maqsadida 2013/2014 o‘quv yilidan boshlab Respublikaning barcha hududida chet tillarni, asosan, ingliz tilini o‘rganish umumta’lim maktablarining birinchi sinflaridan o‘yin tarzidagi darslar va og‘zaki nutq darslari shaklida, ikkinchi sinfdan boshlab esa, alifbo, o‘qish va grammatikani o‘zlashtirishdan bosqichma-bosqich boshlanadi” - deyiladi prezident qarorida. Bu yurtimizda chet tilini o‘rganishini rivojlantirishga qaratilgan ilk qadamlardan edi va hozirda ham bu ishlar davom etmoqda. Masalan, «Biz raqobatdosh davlat qurishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliygoh bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat’iy talab har bir ta’lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim», — dedi Shavkat Mirziyoyev. Bu chora tadbirlarni amalga oshirishda zamonaviy metodikalar va qarashlar muhim ahamiyatga ega. Chet tillarini o‘rganish va o‘rgatish chet tili metodikasini nazariy jihatdan ishlab chiqish va nazariyani amalda qo’llashga bog’liq.

Metod yunoncha "metodos" - bilish yoki tadqiqot yo‘li, nazariya, ta’limot degan ma’noni bildirib, voqelikni amaliy va nazariy egallash, o‘zlashtirish, o‘rganish, bilish uchun yo‘l-yo‘riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli. Metodika o‘z mazmuni jihatidan amaliy yoki nazariy shaklda bo‘lishi mumkin. Chet til o‘qitish metodikasi fan sifatida 200 yildan ortiq tarixga ega va hozirgi kunda bu metodikalar ham o‘rganuvchilarga yanada qulay bo‘lishi uchun zamonga mos ravishda o‘zgarib, yangilanib bormoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash, o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda o‘rganuvchilarning yoshini va rivojlanish darajasini inobatga olgan holda tanlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Misol uchun maktabgacha ta’lim bolalari uchun qiziqarli videolar, yorqin rangdagi materilallardan foydalanish, amaliy mashg’ulotlarni mustaqil tarzda bajarish va jamoaviy ishlay olishni rivojlantiradigan mashg’ulotlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Maktab yoshidagi bolalarga xotirani yaxshilovchi o‘yinlar tashkil etish, ta’lim jarayonidagi faolligini rag’batlantirib borish va o‘z fikrini erkin bildira olishiga imkon beruvchi metodlardan foydalanish kerak. Oliy ta’lim talabalari esa bahs-munozarali, muammoli vaziyatlar va ularning yechimi haqida chet tilida fikr yuritish va dunyoqarashini kengaytirish kabi usullar orqali amalga oshirishi kerak. Umuman olib aytganda bir inson chet tilining asosiy qismini muloqot qilish orqali o‘rganadi. Demak til o‘rganishda o‘qituvchi emas o‘rganuvchilar asosiy o‘rinda bo‘lishi va dars jarayonida ularning muloqot darajasi yuqoriroq bo‘lishi kerak. Ularning chet tilidagi muloqot darajasini oshirish uchun quyidagi metodlardan foydalanish mumkin: “Hikoya zanjiri” o‘yinida bir inson hikoyani boshlaydi va boshqalar bu hikoyani o‘zlari bilganicha davom ettiradi va bu ularga kreativ fikrlashga

ham katta yordam beradi. Yosh bolalar uchun so'zlarni eslab qolishda turli narsalarni berib ular bilan “Menda bor”, “Menda yo’q” deyish. Chet tilini o’rganuvchilar o’yinlar va quvnoqlik bilan o’rganishi kerak. Muloqotni yaxshilashning yana bir usuli zamonaviy texnologiyalardan foydalanish hisoblanadi. Bunda Tandem, Duolingo, Elsa kabi ilovalardan foydalanib chet davlatdagi mahalliy insonlar bilan yoki sun’iy intellektlar bilan o’rganayotgan tilda suhbatlashiladi.

Chet tilini o’rganish va o’rgatishning asosiy maqsadlaridan biri yoshlarni chet elga borib o’z bilimlarini rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalar bilan tanishish, dunyoqarashini kengaytirish va ta’lim tizimidagi yangi metodlarni o’rganish va uni yurtimizda tatbiq etish.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qodirova, N. M., & Xojiboboyeva, X. (2024). ПОВЫШЕНИЕ ВРЕМЕНИ БАКАЛАВРА НА ВЫСОКИЙ УРОВЕНЬ НА ОСНОВЕ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ НАВЫКОВ. XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYALAR, 1(1), 350-353.
2. “Wikipedia” internet web-sahifasi.
3. Djimali Shabanov (2009). CHET TILINI O’QITISH METODIKASI VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR nomli o’quv qo’llanma.